ISNN:2181-1296

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (156)
2026

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2026-yil, 2-son (156/2) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Huquqshunoslik, Siyosiy fanlar, O‘qitish metodikasi, Filologiya, Pedagogika, Sotsiologiya, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R.I.XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI: **H.A.XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M.Q.Muhiddinov	-f.f.d., professor (SamDU)	B.E.Ergashev	-t.f.d., professor (SamDU)
Stefano Benazzi	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	S.A.Karimov	-f. f. d., professor (SamDU)
Simone Mantelini	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	M.X.Lutfullayev	-p.f.d.. professor (SamDU)
Sh.Y.Ziyodov	-i.f.d. (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)	A.R.Samadov	-fal. f.d., professor (SamDU)
N.U.Arabov	-i.f.d., professor (SamDU)	Sh.A.Hasanov	-f.f.d., professor (SamDU)
Hiroaki Huziie	-Osaka universiteti professori (Yaponiya)	B.S.G‘oyibov	-t.f.d., (SamDU)
B.O.To‘rayev	-fal. f.d., professor (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-	G.B.Normurodova	-t.f.d., (SamDU)
A.B.Pardayev	-f. f.d., professor (SamDU)	F.Sh.Rashidova	-t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.Yusupova	-f.f.n., dotsent (SamDU)	D.Q.Usmonova	-i.f.n., dotsent (SamDU)
O.Qodirov	-p.f.n., dotsent (SamDU)	N.A.Isakova	-f.f.n., dotsent (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun- **5584**

M U N D A R I J A
C O N T E N T S

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
1	Samarqandning Temuriylar sulolasi davridagi evolyutsiyasi, uning sivilizatsiyalarga o‘zaro ta’siri va uyg‘unlashuvi **Keremu N.**	The evolution of samarkand during the timurid dynasty and the interaction and fusion of its civilizations **Keremu N.**	**5-11**
2	Nazar Eshonqulning “Bepoyon osmon” hikoyasida muallif uslubiga lingvopoetik jihatdan yondashuv **Safarova D.B.**	A Linguopoetic Approach to the Authorial Style in Nazar Eshonqul’s Short Story “Bepoyon osmon” (The Boundless Sky”) **Safarova D.B.**	**12-15**
3	Ingliz va o‘zbek tillarida neologizmlarning tasnifi va ularning til tizimidagi o‘rni **Pardayeva N.B.**	Classification of neologisms in english and uzbek languages and their role in the language system **Pardaeva N.B.**	**16-20**
4	O‘rta asrlarda sharq va g‘arbiy yevropa mamlakatlaridagi davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzilmalarining qiyosiy tahlili **Abdullayev A.G.**	A comparative analysis of public administration and social structures in the countries of Eastern and Western Europe in the Middle Ages **Abdullaev A.G.**	**21-27**
5	Davlat ekologik ekspertizasi tizimining shakllanish tarixi va uning rivojlanish bosqichlari **O‘tayev O‘. Ch.**	History of the formation of the state ecological expertise system and its development stages **Utaev U. Ch.**	**28-30**
6	Samkomstarisning Samarqanddagi arxeologik tadqiqotlari va muzey fondlari shakllanishiga qo‘shgan hissasi **Yunusov M.**	The contribution of samkomstaris to archaeological research in Samarkand and to the formation of museum collections **Yunusov M.**	**31-36**
7	7-9-sinf o‘quvchilarining stem kompetensiyalarini baholash: spetsifikatsiya, mezonlar va kpi indikatorlari **Aliyeva X.Sh.**	Assessment of Stem competencies of 7-9 grade students: specification, criteria and kpi indicators **Alieva Kh.Sh.**	**37-42**
8	Raqamli tibbiy ta’limda talabalarda profilaktik immun madaniyatni rivojlantirish texnologiyalari **Mirzakarimova D.B.**	Technologies for the development of preventive immune culture in digital medical education students **Mirzakarimova D.B.**	**43-49**
9	10-12 yoshli kurashchilarda egiluvchanlik sifatining kurash texnikasini o‘zlashtirish samaradorligiga ta’siri **Toshmurodov O.**	The effect of flexibility on the efficiency of kurash technique acquisition in 10–12-year-old kurash athletes **Toshmurodov O.**	**50-57**
10	Влияние государственной политики развития спорта (в контексте «нового Узбекистана») на мотивацию учащихся спортивных школ **Мадаминов Б.Ш.**	The influence of state policy on sports development (in the context of "New Uzbekistan") on the motivation of students in sports schools **Madaminov B.Sh.**	**58-62**
11	Трансформация и калькирование иронических фразеологических единиц в русском и узбекском языках **Тошбекова Д.И.**	Transformation and Calquing of Ironic Phraseological Units in Russian and Uzbek **Toshbekova D.I.**	**63-68**
12	Объективная и субъективная модальность в русском и узбекском языках **Усманова С.Ю.**	Objective and subjective modality in Russian and Uzbek languages **Usmanova S.Yu.**	**69-76**
13	Образ женщин в произведениях Ч. Айтматова **Хаитова Ф.С.**	The Image of Women in the Works of Ch. Aitmatov **Khaitova F.S.**	**77-81**
14	Voleybol murabbiylarini tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish afzalligi **Boltayev Z.B.**	The advantage of using modern pedagogical technologies in the process of training volleyball coaches **Boltaev Z.B.**	**82-87**

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
15	Bo‘lajak shifokorlarda klinik-diagnostik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik modeli va raqamli ta’lim **Zokirov M.M.**	Pedagogical model for developing clinical-diagnostic competence in future physicians and digital educational technologies **Zokirov M.M.**	**88-93**
16	Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (tika)ning tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari hamda tashkiliy-siyosiy asoslari **Isadjanov B.I.**	The Establishment and Development of the Turkish Cooperation and Coordination Agency (TIKA), as well as its Organizational and Political Foundations **Isadjanov B.I.**	**94-98**
17	Ingliz gazeta sarlavhalarining tarjima xususiyatlari: lingvostilistik tahlil **Husanova Sh.Z., Isakova N.A.**	Translation features of English newspaper headlines: linguistic-stylistic analysis **Husanova Sh.Z., Isakova N.A.**	**99-103**
18	Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda 4k modeli orqali fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish **Gadayev O.Y., Norkulova J.S.**	Developing thinking and creativity through the 4k model in teaching mother tongue in primary grades **Gadayev O.Y., Norkulova J.S.**	**104-108**
19	Raqamli demokratiya sharoitida legitimlik va fuqarolik faolligining konfiguratsiyasi **Muminjonova U.X.**	Configuration of legitimacy and citizenship in the digital democracy **Muminjonova U.X.**	**109-113**
20	Simulyatsion va raqamli ta’lim muhitida jarrohlik fanini o‘qitishda amaliy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasi **Abduvoxidov A.A.**	Technology for developing practical professional competencies in teaching surgery within a simulation-based and digital learning environment **Abduvoxidov A.A.**	**114-119**
21	Shoshilinch tibbiy yordamda travmatologik holatlarni sun’iy intellekt asosida erta triaj qilish va klinik qaror qabul qilish samaradorligini oshirish metodikasi **Xolmatov A.A.**	Methodology for improving the efficiency of early triage and clinical decision-making in traumatological conditions in emergency medical care based on artificial intelligence **Xolmatov A.A.**	**120-125**
22	Bo‘lajak shifokorlarda klinik qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik raqamli texnologiyalari **Samatov Z.Z.**	Pedagogical digital technologies for developing clinical decision-making competence in future physicians **Samatov Z.Z.**	**126-130**
23	Yuqumli kasalliklar fanini o‘qitishda klinik-profilaktik fikrlash va epidemiologik xavflarni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi **Turdiyev M.N.**	Technology for developing clinical-preventive thinking and epidemiological risk management competencies in teaching infectious diseases **Turdiev M.N.**	**131-136**
24	Bo‘lajak shifokorlarga raqamli ta’lim muhitida anatomiya fanini o‘qitishninig zamonaviy texnologiyalari **Nishonova D.T.**	Modern technologies of teaching anatomy to future physicians in a digital educational environment **Nishonova D.T.**	**137-142**
25	Stomatologiya ta’limida valeologik madaniyatni rivojlantirishning integrativ va raqamli pedagogik texnologiyalari **Kamoliddinova I.Sh.**	Ntegrative and digital pedagogical technologies for developing valeological culture in dental education **Kamoliddinova I.Sh.**	**143-148**
26	Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarda mediasavodxonlik ko‘nikmalarini interfaol ta’lim texnologiyalari asosida takomillashtirish **Temirova Z.A.**	Improving students’ media literacy skills in a digital learning environment based on interactive educational technologies **Temirova Z.A.**	**149-154**
27	Tibbiy ta’lim muassasalari talabalarida klinik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi **Kamalova D.A.**	Technology for developing clinical thinking competence among students of medical educational institutions **Kamalova D.A.**	**155-159**
28	Charlz Dikkensning ijodida idio-stilning rivojlanishi: lingvostilistika tahlili **Rahmatilloyeva R.S.**	The development of idio-style in charles dickens’s creative work: linguastylistic analysis **Rahmatilloeva R.S.**	**160-167**

UDK: 101.1:316.422:004 https://doi.org/10.59251/2181-3973.2025.v1.138.1.3919

RAQAMLI DEMOKRATIYA SHAROITIDA LEGITIMLIK VA FUQAROLIK FAOLLIGINING KONFIGURATSIYASI

U.X.Muminjonova
Jizzax Sambhram universiteti, Jizzax, O‘zbekiston.

U.X.Muminjonova
Jizzax Sambhram universiteti, Jizzax, O‘zbekiston.

Kelib tushgan: 19.03.2026
Ko‘rib chiqildi: 30.03.2026
Qabul qilindi: 17.04.2026
Nashr qilindi: 30.05.2026

Nashriyotchi: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli demokratiya fenomeni ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda legitimlik tushunchasining transformatsiyasi, uning shakllanish mexanizmlaridagi o‘zgarishlar va fuqarolik faolligining sifat jihatdan yangi konfiguratsiyalari aniqlanadi. Muallif tomonidan asosiy e’tibor raqamli ishtirokning kengayishi demokratik tizim sifatining avtomatik oshishiga olib kelmasligi muammosiga qaratiladi. Tadqiqot jarayonida legitimlikning an’anaviy huquqiy-institutsional modeli bilan bir qatorda kommunikativ va algoritmik legitimlik shakllari konseptual jihatdan asoslanadi. Shuningdek, fuqarolik faolligining reaktiv hamda refleksiv shakllari ajratilib, ularning demokratik jarayonlarga ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: raqamli demokratiya, legitimlik, fuqarolik faolligi, siyosiy subyektlik, algoritmik vositalanish, deliberativ yondashuv, siyosiy madaniyat, ijtimoiy transformatsiya.

Конфигурация легитимности и гражданской активности в условиях цифровой демократии

Аннотация. В данной статье представлен комплексный социально-философский анализ феномена цифровой демократии. В исследовании рассматривается трансформация понятия легитимности, изменения механизмов её формирования, а также выявляются новые качественные конфигурации гражданской активности. Особое внимание уделяется проблеме того, что расширение цифрового участия не приводит автоматически к повышению качества демократической системы. В работе концептуально обосновываются не только традиционная правовая и институциональная модель легитимности, но и её коммуникативные и алгоритмические формы. Кроме того, выделяются реактивный и рефлексивный типы гражданской активности и анализируется их влияние на демократические процессы.

Ключевые слова: цифровая демократия, легитимность, гражданская активность, политическая субъектность, алгоритмическое посредничество, делиберативный подход, политическая культура, социальная трансформация.

Configuration of legitimacy and citizenship in the digital democracy

Abstract. This article provides a comprehensive socio-philosophical analysis of the phenomenon of digital democracy. The study examines the transformation of the concept of legitimacy, changes in its formation mechanisms, and identifies new qualitative configurations of civic engagement. Particular attention is paid to the problem that the expansion of digital participation does not

automatically lead to an improvement in the quality of democratic systems. The research substantiates, at a conceptual level, not only the traditional legal-institutional model of legitimacy but also its communicative and algorithmic forms. In addition, the study distinguishes between reactive and reflexive types of civic engagement and analyzes their impact on democratic processes.

Keywords: digital democracy, legitimacy, civic engagemen political subjectivity, algorithmic mediation, deliberative approacl political culture, social transformation.

Kirish. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi zamonaviy siyosiy tizimlarning strukturaviy va funksional xususiyatlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Davlat boshqaruvi, jamoatchilik muhokamasi va siyosiy ishtirokning asosiy kanallari tobora ko‘proq raqamli platformalar orqali amalga oshirilmoqda. Natijada siyosiy kommunikatsiya shakllari transformatsiyaga uchrab, fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki yangi bosqichga ko‘tarilmoqda[1]. Ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda mazkur jarayon demokratiyaning kengayishi sifatida talqin qilinadi. Xususan, Manuel Kastells raqamli tarmoqlarni ijtimoiy tuzilmaning asosiy elementi sifatida baholaydi[2], Yurgen Xabermas esa kommunikativ makonning kengayishini demokratiya rivojining muhim sharti sifatida ko‘rsatadi[3]. Biroq bu yondashuvlar ko‘pincha demokratiya mohiyatini faqat ishtirok ko‘lamining kengayishi bilan izohlashga moyil.

Holbuki, demokratiyaning asosiy mezoni legitimlik hisoblanadi. Maks Veber ta’kidlaganidek, legitimlik hokimiyatning ijtimoiy jihatdan tan olinishi va qo‘llab-quvvatlanishiga asoslanadi[4].

Raqamli muhitda esa legitimlik yangi mexanizmlar - algoritmik vositalanish, axborot oqimlarining fragmentatsiyasi va kommunikativ makonning o‘zgarishi orqali shakllanmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi - raqamli demokratiya sharoitida legitimlik va fuqarolik faolligining o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish hamda ularning yangi shakllanish mexanizmlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslashdan iborat.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot ijtimoiy-falsafiy tahlil paradigmasi doirasida amalga oshirilib, unda legitimlik va fuqarolik faolligining raqamli transformatsiyasini kompleks o‘rganishga qaratilgan bir qator metodologik yondashuvlar uyg‘unlashtirildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari Maks Veber (Max Weber) legitimlik nazariyasi, Yurgen Xabermas (Jürgen Habermas) ning kommunikativ ratsionallik va deliberativ demokratiya konsepsiyasi, Manuel Kastells (Manuel Castells) ning tarmoq jamiyati nazariyasi hamda Niklas Luman (Niklas Luhmann) ning tizimlar nazariyasiga tayanadi.

Bundan tashqari, tadqiqotda o‘zbek falsafiy-ilmiy maktabining yondashuvlari ham metodologik asos sifatida qo‘llanildi. Xususan, ijtimoiy-falsafiy jarayonlarni tahlil qilishda Erkin Yusupov[5], qadriyatlar va ma’naviy taraqqiyot masalalarini o‘rganishda Abdulla Sher[6], zamonaviy ijtimoiy tafakkur va ma’naviy jarayonlar tahlilida Azamat Sharipov[7] qarashlariga tayanildi.

Birinchidan, ijtimoiy-falsafiy tahlil usuli orqali legitimlik kategoriyasining ontologik, epistemologik va aksiologik mohiyati ochib berildi. Ushbu yondashuv legitimlikni faqat huquqiy kategoriya sifatida emas, balki ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq murakkab fenomen sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Bu borada Maks Veber tomonidan ishlab chiqilgan legitimlik tipologiyasi (an’anaviy, xarizmatik va ratsional-huquqiy legitimlik) metodologik asos sifatida xizmat qildi.

Ikkinchidan, konseptual modellashtirish usuli asosida raqamli demokratiya sharoitida legitimlikning ko‘p qatlamli strukturaviy modeli ishlab chiqildi. Mazkur modelda Manuel Kastells ning tarmoq jamiyati konsepsiyasi hamda Niklas Luman ning tizimli yondashuvi integratsiya qilinib, legitimlikning huquqiy-institutsional, kommunikativ va algoritmik komponentlari o‘zaro bog‘langan dinamik tizim sifatida talqin etildi.

Uchinchidan, komparativ tahlil usuli yordamida an’anaviy demokratiya va raqamli demokratiya o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, legitimlikning shakllanish mexanizmlaridagi sifat o‘zgarishlari ochib berildi. Ushbu jarayonda Robert Dal (Robert A. Dahl) ning demokratik ishtirok va plyuralizm haqidagi qarashlari metodologik mezon sifatida qo‘llanildi.

To‘rtinchidan, diskursiv tahlil usuli deliberativ demokratiya paradigmasi doirasida qo‘llanilib, kommunikativ jarayonlarning sifat ko‘rsatkichlari - ochiqlik, tenglik va ratsionallik nuqtayi nazaridan

o‘rganildi. Bu yondashuv Yurgen Xabermas ning kommunikativ harakat nazariyasiga asoslangan bo‘lib, raqamli muhitda diskursiv legitimlik shakllanish mexanizmlarini tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotning nazariy asosini deliberativ demokratiya nazariyasi, tarmoq jamiyati konsepsiyasi, tizimlar nazariyasi hamda algoritmik boshqaruv va vositalanishga oid zamonaviy ilmiy qarashlar tashkil etadi. Ushbu nazariy yondashuvlar integratsiyasi raqamli demokratiya fenomenini ko‘p darajali va kompleks tizim sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Natijalar:

1. Legitimlikning uch darajali modeli. Tadqiqot natijasida legitimlik quyidagi strukturaga ega ekani aniqlanadi:

1. Huquqiy-institutsional legitimlik;
2. Kommunikativ legitimlik;
3. Algoritmik legitimlik

Huquqiy-institutsional legitimlik - siyosiy hokimiyatning qonuniyligi va normativ asoslanganligini ifodalaydi hamda konstitutsiyaviy me’yorlar, huquqiy tartibotlar va rasmiy institutlar faoliyati orqali ta’minlanadi. Mazkur legitimlik turi davlat hokimiyatining formal jihatdan tan olinishi va uning qarorlarining huquqiy asosga egaligini kafolatlaydi. Shu bilan birga, u barqarorlik va tartibni ta’minlovchi asosiy strukturaviy omil sifatida namoyon bo‘lsa-da, zamonaviy sharoitda u kommunikativ va ijtimoiy omillardan ajralgan holda yetarli darajada samarali bo‘la olmaydi.

Kommunikativ legitimlik - ijtimoiy subyektlar o‘rtasidagi ochiq, erkin va ratsional muloqot jarayonida shakllanadigan, o‘zaro tushunish va ijtimoiy kelishuvga asoslangan legitimlik shaklidir. U deliberativ demokratiya paradigmasi doirasida qarorlarning asoslanganligi va qabul qilinishini ta’minlaydi. Mazkur legitimlik turi fuqarolarning siyosiy jarayonlarda ongli ishtirokini, fikrlar xilma-xilligini va muhokama madaniyatini talab etadi hamda siyosiy tizimning ijtimoiy asoslanganligini kuchaytiradi.

Algoritmik legitimlik - raqamli platformalar, sun’iy intellekt tizimlari va algoritmik filtratsiya mexanizmlari orqali bilvosita shakllanadigan legitimlik turi bo‘lib, unda axborot oqimining saralanishi, ustuvorlashtirilishi va tarqatilishi jamoatchilik fikri hamda siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu legitimlik shakli an’anaviy va kommunikativ legitimlikdan farqli ravishda yashirin (implicit) xarakterga ega bo‘lib, ko‘pincha foydalanuvchilarning ongidan tashqarida faoliyat yuritadi. Natijada u siyosiy ong va ijtimoiy tasavvurlarni shakllantirishda muhim, biroq murakkab va bahsli omil sifatida namoyon bo‘ladi[8].

2. Fuqarolik faolligining ikki modeli:

REAKTIV FAOLLIK → tezkor, emotsional, yuzaki.

REFLEKSIV FAOLLIK → ongli, tahliliy, mas’uliyatli.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli makonda reaktivlik ustun bo‘lsa:

Demokratik sifatning pasayishi - fuqarolik ishtirokining asosan reaktiv va emotsional xarakter kasb etishi natijasida siyosiy jarayonlarning mazmuniy chuqurligi, deliberativlik darajasi va qaror qabul qilishning asoslanganligi susayadi. Bunday sharoitda siyosiy muhokamalar yuzaki tus oladi, argumentatsiya o‘rnini tezkor reaktsiyalar egallaydi hamda demokratik institutlarning samaradorligi va ijtimoiy ishonchliligi pasayadi.

Legitimlikning zaiflashuvi - siyosiy qarorlar va hokimiyat faoliyatining jamiyat tomonidan tan olinishi darajasi pasayib, ularning normativ asoslanganligi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi izdan chiqadi. Ayniqsa, algoritmik vositalanish va fragmentatsiyalangan axborot muhiti sharoitida jamoatchilik fikrining parokandalashuvi legitimlikning barqarorligini susaytiradi hamda siyosiy tizimga nisbatan ishonchning kamayishiga olib keladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli demokratiya jarayonlarini faqat texnologik determinizm asosida izohlash ilmiy jihatdan yetarli emas. Aksincha, mazkur jarayonlar ko‘proq ijtimoiy omillar, xususan siyosiy madaniyat, fuqarolik ongining darajasi hamda kommunikativ muhit sifati bilan belgilanadi. Bu esa raqamli texnologiyalarni demokratik rivojlanishning mustaqil drayveri sifatida emas, balki mavjud ijtimoiy tizim bilan o‘zaro ta’sirda faoliyat yurituvchi vosita sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi. Raqamli muhitda algoritmik vositalanish markaziy rol o‘ynaydi. U axborot oqimini selektiv tarzda saralash va ustuvorlashtirish orqali foydalanuvchilarga taqdim etiladigan kontentni shakllantiradi. Natijada jamoatchilik fikri tabiiy ravishda emas, balki ma’lum darajada yo‘naltirilgan holda shakllanadi[9]. Bundan tashqari, algoritmik mexanizmlar kommunikativ makonda tenglik prinsipini cheklab, deliberativ muloqotning asosiy shartlari - ochiqlik, erkinlik va ratsionallikni buzishi mumkin.

“Raqamli legitimlik konfiguratsiyasi modeli”



Mazkur jarayonlar natijasida legitimlikning an’anaviy talqini ham sezilarli darajada transformatsiyaga uchraydi. Agar klassik yondashuvlarda legitimlik asosan normativ-huquqiy asoslar bilan bog‘langan bo‘lsa, zamonaviy raqamli sharoitda u vositalangan, ko‘p qatlamli va murakkab ijtimoiy konstruksiya sifatida namoyon bo‘ladi[10]. Bunda legitimlik nafaqat institutsional va kommunikativ omillar, balki algoritmik ta’sir mexanizmlari orqali ham shakllanadi. Raqamli demokratiya sharoitida legitimlik va fuqarolik faolligining o‘zaro bog‘liqligi tahlili muallifning avvalgi tadqiqotlarida ko‘rsatilgan[11].

Shu bois raqamli demokratiya sharoitida legitimlikni tushuntirishda integrativ yondashuv zarur bo‘lib, u huquqiy, kommunikativ va texnologik komponentlarning o‘zaro uyg‘unligini hisobga olishni talab etadi.

Xulosa. Texnologiya rivojlanar ekan, u muqarrar ravishda jamiyatning barcha jabhalariga, jumladan, hukumat faoliyatiga ham ta’sir qiladi[12].

Mazkur tadqiqot natijasida raqamli demokratiya sharoitida legitimlik va fuqarolik faolligining o‘zaro bog‘liqligi ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tizimli ravishda tahlil qilindi hamda quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, raqamli demokratiya sharoitida legitimlik an’anaviy normativ-huquqiy mazmun doirasidan chiqib, kommunikativ va algoritmik komponentlarni o‘z ichiga olgan ko‘p qatlamli ijtimoiy konstruksiyaga aylanishi asoslandi. Bu esa legitimlikni statik emas, balki dinamik va vositalangan jarayon sifatida talqin qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ikkinchidan, fuqarolik faolligining raqamli muhitdagi transformatsiyasi natijasida uning ikki asosiy tipi - reaktiv va refleksiv shakllari ajratildi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, demokratik tizimning barqarorligi va sifati aynan refleksiv subyektlik darajasi bilan belgilanadi, reaktiv faollikning ustunligi esa legitimlikning zaiflashuviga olib keladi.

Uchinchidan, algoritmik vositalanishning jamoatchilik fikri shakllanishiga ta’siri aniqlanib, uning legitimlik ishlab chiqarishdagi bilvosita, ammo muhim omil ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Shu orqali legitimlikning yangi - algoritmik modeli konseptual jihatdan ishlab chiqildi.

To‘rtinchidan, tadqiqot natijalari asosida raqamli demokratiya mustaqil demokratlashtiruvchi mexanizm emasligi, balki siyosiy madaniyat, tanqidiy tafakkur va fuqarolik ongining rivojlanish darajasiga bog‘liq shartli transformatsion tizim ekanligi isbotlandi.

Beshinchidan, maqolada taklif etilgan konseptual model legitimlik va fuqarolik faolligi o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqalarni tizimli tushuntirish imkonini beradi hamda raqamli siyosiy jarayonlarni tahlil qilish uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning natijalari:

- raqamli demokratiya siyosatini shakllantirishda;
- fuqarolik faolligini sifat jihatdan rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda;
- algoritmik boshqaruvni normativ tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishda qo‘llanilishi mumkin.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo‘nalishlar istiqbolli deb hisoblanadi:

- raqamli ishtirokning sifat ko‘rsatkichlarini empirik o‘lchash;
- algoritmik manipulyatsiyaning legitimlikka ta’sirini eksperimental o‘rganish;
- deliberativ raqamli platformalarning real samaradorligini tahlil qilish.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni.
2. Castells, M. The Power of Identity. – Oxford: Blackwell Publishers, 2010. – 538 p.
3. Habermas, J. The Structural Transformation of the Public Sphere. – Cambridge: MIT Press, 1991. – 301 p.
4. Вебер, М. Хозяйство и общество: очерки понимающей социологии. Т. 1. – М.: ВШЭ, 2016. – 445 с.
5. Юсупов, Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. – Тошкент: Университет, 1998. – 214 б.
6. Шер, А. Ахлоқшунослик. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2010. – 256 б.
7. Шарипов, А. Рақамли жамиятда ижтимоий онг трансформацияси // Фалсафа ва ҳуқуқ. – Тошкент, 2022. – №3. – Б. 12-15.
8. Luhmann, N. Legitimation durch Verfahren. – Frankfurt: Suhrkamp, 1983. – 210 s.
9. Morozov, E. The Net Delusion: The Dark Side of Internet Freedom. – New York: PublicAffairs, 2011. – 432 p.
10. Sunstein, C. R. #Republic: Divided Democracy in the Age of Social Media. – Princeton: Princeton University Press, 2017. – 328 p.
11. Muminjonova U.X. Zamonaviy dunyoda raqamli demokratiyaning ahamiyati // Progress of Science: Innovative Approaches to Science and Strategic Analyses: xalqaro ilmiy-texnik konferensiya materiallari. – 11 noyabr 2024. – 366–369-betlar.
12. Muminjonova U.X. Raqamli demokratiya: ahamiyati, jahon davlatlarida qo‘llash va kelajak perspektivlari // American Journal of Education and Learning. – 2025. – Vol. 3, Issue 5. – 840–847-betlar.

SAMARQAND UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC REPORTS

Texnik muharrir **Sh.Xoliqulov**

Muharrirlar:

I.Sulaymonov - fil.f.d., dotsent
E.Arziqulov - f.-m.f.d., dotsent
O.Yusupova - fil.f.n., dotsent

Mas'ul muharrir:

A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.n.

Muassis: Samarqand davlat universiteti Manzil: 140104,
Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 240-38-47, Faks: (0 366) 239-13-87 e-mail:
axborotnoma.uz
SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi. Bosishga 30.05.2026-yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00
Buyurtma raqami 845 Adadi 30 nusxa.

ISSN 2181-1296